

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona
va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

2020-yil yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2087,5 ming so'mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 17,9 % ga o'sishni ta'minladi.


**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilot
xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o'ratacha oylik ish haqining
o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarishi, foizda:**

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

	Korxona va tashkilotlar soni	102,2
	Xodimlar soni	105,3
	Ish haqi fondi	126,0
	O'rtacha oylik nominal xisoblangan ish haqi	117,9
2020-yil yanvar-iyun.	O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi	1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilorlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm:

(2020-yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)



Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilot xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o‘ratacha oylik ish haqining o‘zgarishi:
(2020-yil yanvar-iyun; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

	Korxona va tashkilotlar soni, birlik:	Xodimlar soni, kishi:	Ish haqi fondi, mln.so‘m:	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m:
--	--	------------------------------	----------------------------------	--

Viloyat bo‘yicha - jami	1397	96734	1211588,8	2087,5
--------------------------------	-------------	--------------	------------------	---------------


shu jumladan:

Sanoat	35	11585	162053,3	2276,7
Qurilish	4	867	6142,7	1175,7
Savdo	13	1287	20714,3	2566,0
Tashish va saqlash	10	1020	9612,1	1568,2
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	6	77	492,9	1066,8
Axborot va aloqa	19	473	7870,3	2707,8
Bank, sug‘urta va vositachilik	28	2053	68738,9	5540,6
Ta’lim	869	45235	530315,4	1927,6
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	71	18806	196208,1	1731,6
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	46	863	12913,4	2488,9
Boshqa faoliyat turlari	296	14468	196527,5	2260,2

Ish haqi. 2020-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Ta'lim sohasida 869 ta muassasada **45235** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,8 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 530315,4 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 43,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1927,6** ming so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 12,6 % ga o'sdi.






Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020-yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi

va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Paxtakor -99,9 %, Do'stlik - 98,0 %, Yangiobod - 97,2 % hamda Forish – 91,5 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahri – 115,5 % va Baxmal tumani – 110,4 % hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






**Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2020-yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)**



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlar o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Paxtakor tumani - 150,0 %, Jizzax shahri - 105,5 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Do'stlik - 96,6%, Zarbdor - 79,9 %, Sharof Rashidov - 77,0 % hamda Forish - 74,4 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha
oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2020-yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va
kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)**



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Zafarobod tumani -114,3 %, Mirzacho'l tumani -113,5 %, va G'allaorol tumani - 111,2 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Baxmal - 93,7 %, Sharof Rashidov - 91,8 %, Zomin - 90,7 % hamda Yangiobod – 90,5 % tumanlarida kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






**Qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2020-yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)**



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:



Qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'rriadigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Mirzacho'l - 201,3 %, Jizzax shahrida - 179,8 % viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Zafarobod - 73,8 %, tumanida kuzatildi.





**Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2020-yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari)**




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida - 103,2 % ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Yangiobod tumani - 63,3 %, Zomin tumani- 53,7 %, Paxtakor tumani - 45,5 % hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %.

(2020-yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlaridan tashqari.)

Jizzax viloyati bo'yicha 2020-yil yanvar-iyun oylarida 2019-yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati moliyaviy va sug'urta faoliyatida 54,3 %, yashash va ovqatlanish sohasida 24,1 %, sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 23,9 %, sanoatda 23,7 %, va savdo sohasida 20,5 %, kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida 2602,4 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (124,7 %), Paxtakor tumanida 2090,1 ming so'mni (100,1 %) tashkil etgan bo'lsa, Zafarobod tumanida 1616,5 ming so'mni (77,4%), Forish tumanida 1650,3 ming so'mni (79,1 %), G'allaorol tumanida 1706,1 ming so'mni (81,7 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Shahar va tumanlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi:**

(2020-yil yanvar-iyun; Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari,
ming so'm.)

	2019-yil yanvar- iyun.	2020-yil yanvar- iyun.	O'sish sur'ati, %.
Jizzax viloyatida	1770,4	2087,5	117,9
Jizzax shahri	2214,4	2602,4	117,5
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1830,7	1878,6	102,6
Baxmal	1760,0	1994,0	113,3
G'allaorol	1502,6	1706,1	113,5
Sharof Rashidov	1671,9	1744,7	104,4
Do'stlik	1640,9	2005,9	122,2
Zomin	1682,1	1935,3	115,1
Zarbdor	1143,5	1921,3	168,0
Zafarobod	1444,1	1616,5	111,9
Mirzacho'l	1536,9	1803,4	117,3
Paxtakor	1454,2	2090,1	143,7
Forish	1441,1	1650,3	114,5
Yangiobod	1434,0	1765,4	123,1

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2020-yil mart oyida 679,3 ming so'mni tashkil etgan), Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 47-sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



***Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi.***

Тел:72-221-51-19